

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“Xitoy iqtisodiyoti” kafedrası

KURS ISHI

Mavzu: XXR bank tizimi islohotlarining muammolari.

5231000 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik fakulteti (Xitoy iqtisodiyoti)

Bajardi: 3-kurs Xitoy-fransuz guruhi Usmanova Zebo

Himoyaga ruxsat etildi: _____

Ilmiy rahbar: prof. Maxmudov E.R.

Komissiya xulosasi _____

Toshkent – 2015-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. ISLOHOTLARGACHA DAVRDA XITOIY IQTISODIYOTI VA BANK TIZIMI.....	5
1.1 Xitoy iqtisodiyotining shakllanishida banklarning o' rni.....	5
1.2 Xitoy bank tizimining shakllanishi.....	7
II BOB. XITOIY SPETSIFIKALI BOZOR IQTISODIYOTIDA BANK TIZIMI.....	17
2.1 XXRning ko' p pog' onali bank tizimi.....	17
2.2 Zamonaviy bank tizimining yutuqlari va kamchiliklari.....	23
XULOSA.....	25
FOYDALANGAN ADABIYOOTLAR RO'YXATI.....	27

KIRISH

Zamonaviy Xitoy bu dinamik rivojlanayotgan mamlakat, kuchli siyosiy markazga ega. Bugungi kunda Xitoy dunyo bo'yicha oltinchi o'rinda iqtisodiyotining kuchliligi va to'rtinchi o'rinda tashqi savdo aylanmasi bo'yicha. Zamonaviy bank tizimi - ixtiyoriy davlatning milliy xo'jaligining muhim sohasi hisoblanadi. Uning amaliyotdagi ahamiyati davlat tizimidagi to'lov hamda hisob kitoblarni boshqaruvidan iborat. Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishining moliyaviy jihatdan tarixiy shakllanishida bank kreditlash asosiy belgisi hisoblanadi. Xitoy bank tizimi jamg'arma hamda investitsiya moliyaviy vositalar o'rtasida asosiy kanal vazifasini o'taydi.

Bank tizimi- bu umumiy pul-kredit mehanizmi ichida faoliyat ko'rsatuvchi barcha milliy banklar va kredit korxonalar. Buni ichiga Markaziy bank, tijorat tizim banklari va boshqa kredit hisob markazlari kiradi. Xitoy bank tizimi- davlat nazorati ostidagi iqtisodiy sektori biri. Davlat to'rtta yirik tijorat bankining xususiy egasi(ya'ni "Katta to'rtlik"): Qurilish savdo Xitoy banki, Xitoy banki, Qurilish va qishloq xo'jalik Xitoy banki va "Siyosiy banklar" (Davlat rivojlanish banki, Import eksport banki va Qishloq rivojlanish banki. Bundan tashqari, akseoner banklarning aksiyalarining umumiy paketi davlat korxonalriga joylardagi hokimiyatlarga tegishli.

Bank tizimi bu bozor iqtisodiyotining asosiy eng muhim strukturasidir. Banklarning rivojlanishi Tovar ishlab chiqarilishi va aylanmasi parallel va bir biriga zich chambarchas bog'langan. Bunda banklar pul hisoblarini o'tkazvotganda, xo'jalikni kreditlaganda, kapitalning qayta rejalanihidagi vositachi ko'rinishida, ishlab chiqarishning umumiy efektini oshiradi, jamiyat mehnatining ishlab chiqarishining o'sishiga yordam beradi.

Zamonaviy Xitoyning oldida turgan vazifalaridan biri meyorida ta'minlash, mustahkamlangan, inflyatsion portilashsiz tovar-pul aylanishi, jamiyatdagi sochilgan moliya mablag'larini markaziyashtirish va kapitalning sifatini oshirish,

mablag'lar bilan muntazam ravishda prespektiv, ayniqsa, strategik ahmiyatiga ega bo'lgan proektlarni ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda rivojlangan tovar va moliya bozorlari sharoitida, bank tizimining strukturasi keskin murakkablashmoqda. Yangi moliya korxonlarining turlari, yangi kreditlovchi korxonalari, kleyentlarga xizmat ko'rsatish usullari va instrumentlari yaratilmoqda.

Bu kurs ishining mavzusi hozirgi kunda dolzarb, chunki bank tizimining rivojlanishi davlat hayoti bilan va bundagi iqtisodiy va sotsial-siyosiy bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'liq.

Bu ishning maqsadi Xitoy bank sistemasini va uning tuzulmaviy o'zgarishlarini o'rganish. Bolayotgan bank sektoridagi o'zgarishlarga baho berishga urinish. Qoyilgan maqsadga erishish uchun bir nechta savollar qo'yib, izlanish protsesi davomida ularga javob berish kerak.

Kurs ishini o'rganishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xitoy iqtisodiyot rivojlanishining xususiyatlarini o'rganish.
- Xitoy iqtisodiyotining shakllanishida banklarning o'rni tahlil qilish.
- Xitoy bank tizimining shakllanishi o'rganish.
- Xitoy spetsifikali bozor iqtisodiyotida bank tizimini o'rganish.
- XXRning ko'p pog'onali bank tizimi tahlil qilib chiqish.
- Zamonaviy bank tizimi yutuqlari va kamchiliklari o'rganish.

Bu ishning tekshirish obyekti Xitoy Xalq Respublikasi bank tizimi.

Bank tizimining elementi, uning muammolari, vazifalari hamda perspektiv rivojlanishi predmeti bo'ladi.

Bu mavzu bo'yicha ko'p har xil adabiyotlar yozilgan. Hamma manbalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Bu guruhga Xitoy bank tizimi va uning elementlariga tushuncha hamda Xitoy bank sistemasining rivojlanish tarixi, uning oxirgi o'tkazgan reformalari va bo'layotgan o'zgarishlarining natijalari haqidagi adabiyotlar majmui.

2. Bu guruh zamonaviy bank tizimi haqidagi ma'lumotga ega. Bank sferasining zamonaviy etapi bilan tanishib hamda uning boshqarilishi va Xitoy rivojlanish banklari haqida.

3. Bu guruhga jurnallardagi maqolalar, muammolar, vazifalar va Xitoy bank tizimining perspektivadagi rivojlanishi va zamonaviy etapdagi modernizatsiya usullari haqida ma'lumot bor.

I BOB. ISLOHOTLARGACHA DAVRDA XITOIY IQTISODIYOTI VA BANK TIZIMI

1.1 Xitoy iqtisodiyotining shakllanishida banklarning o'rni

Xitoy moliya sektori asrlar davomida qurilgan bo'lib, o'z ichiga konfutsiy norma va an'analari orqali oshirilgan reforma va o'zgarishlar takomillangan bank tizimini mujassamlashtiradi. Bunga isbot tarixiy rivojlanish bo'lib, ya'ni Xitoydagi birinchi qog'oz ko'rinishidagi pulning joriy qilinishi. Biroq zamonaviy Xitoy bank tizimi yosh bo'lib, hozircha g'arbdagi rivojlanish darajasiga yetmagan.

Xitoyda qadimiy davrdan pul, kredit va soliq ma'lum. Bu instrumentlar sotsial-iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo'lgan. Tarixdan ko'rinadiki, pul instrumentidan noo'rin ishlatilganligi salbiy natijalarga hamda ulkan mamlakatning boshqaruvidagi adashishlarga olib kelgan.

Har xil davrlarda turli xil instrumentlar asosida vaqtincha pul mablag'larining akumulatsiyasi, qayta rejalaniishi va jamoa yoki alohida guruhlar uchun ishlatilgan. Xitoydagi boshqaruv muomalasi aniq va to'g'ri qoidalariga asoslangan davrlarda pul va kredit jamoaning o'sish faktori hisoblangan. Ularning yo'qligi yoki buzilishlari davlatning rivojlanishida iqtisodiy o'sishga bir necha marta to'sqinlik qilgan.

Zamonaviy Xitoy 1949 yil 1 oktabr kuni MaoTyamin maydonida Xitoy Xalq Respublikasini tashkil topganligi haqida e'lon qilganidan boshlandi.¹ Osha kundan to buyuk Maoning vafoti 1976 yillargacha sotsial-iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar partiya va XXR yetakchisining hukumatini oshirdi. Osha vaqtda Xitoy bank tizimi boshqa iqtisoddagi sohalar kabi, rejalashtirilga xo'jalikka kiritilgan edi.


1948 yil 1 dekabrda Xitoy Xalq Banki tashkil topdi. U shimoliy Xitoy banki, Shimoliy dengiz(sariq) banki va Shimoliy-g'arbiy dehqon bankining

¹ <https://sinologue.wordpress.com/2008/07/02/банковская-система-китая-историческ/> x

qo'shilmasi asosida yaratildi. Xalq revolyutsiyasining yutug'igacha uning asosiy shtabi Shitszyajuanda bo'lgan.

Xitoy xalq banki 1949 yil oktabr oyidagi Xitoy xalq revolyutsiyasining yakunidan keyin, barcha Xitoy chet el banklarining barcha funksiyalarini monopollashtirgan. Xitoy Xalq Banki Markaziy bank, milliy kaznachilik, barcha maxsus banklarni kuzatuv va boshqarish, nobank moliya institutlari va sug'urta kompaniyalarining funksiyalarini bajargan.

XXB sovet modeli asosida tuzilgan bo'lib, 1949-1978 yillarda asosiy kredit, hisob-kitob, davlat emissiya markazi bo'ldi. XXBning strukturasi 1-rasmda ko'rsatilgan. XXB quydagi asosiy funksiyalarni bajargan: pul aylanmasini va milliy valyutasi emissiyasining nazorati, davlat byudjetining kassasini, davlat va kooperativ korxonalar o'rtasidagi valyuta to'lov operatsiyalarini, davlat kaznachilik funksiyalarini bajargan va xalqning jamg'armalarni banklarga qoyishga jalb qilingan. 1949-1978 yillar davomida kapital qoyilmalarning me'yori Xitoyda 40%ni tashkil qildi. XXB bu kapital qo'yilmalarining meyorini xalq xo'jaligidagi davlatning besh yillik rejasi 90%li investitsiyasining yo'llantirishi yirik korxonalariga yo'naltirilgan.



1-rasm. XXB ning strukturasi.²

² Селищев А.С. Развитие банковской системы Китая // Деньги и кредит. - 2004. №11. - С.63-70.

1979 yilgacha Xitoyda faqat uchta bank faoliyat olib borgan, bular Xitoy Xalq Banki, Xitoy Banki, Qurilish banki. Ammo ularning funksiyalari noan'anaviy tarzda taqsimlangan edi. Shunda Xitoy Xalq Banki bitta tomondan barcha markaziy bank funksiyalarini bajarsa, boshqa tomondan davlat ichidagi kredit va depozitni nazorat qilib turadi. Xitoy Banki XXRni tashqi dunyo bilan bog'lab: u yordamida chet el valyuta operatsiyalari amalga oshirilardi. Qurilish Banki investion loihalarni davlat tomonidan moliyalashtirishnqaragan bo'lsa, chunki barcha iqtisodiyotdagi investitsiyalar nobank kredit formasini olib, budjet dotatsiyasiga qaragan. Bunday zaminda kichik xo'jalik kredt kooperatsiyalar bu qattiq va past differensial strukturaga xilma-xillik berardi.

Mamlakat rivojlanishi asosiy yo'nalishning tubdan o'zgarishi Xitoy bank tizimining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu voqea 1979 yilda 1978 yildan keying keying Xitoy mo'jizaviy iqtisodiyotining otasi Den Syapin va uning tarafdorlari buyuk Mao merosiga kurashda g'olib chiqishdi. Yangi etapda "Islohotlar va ochiqlik siyosati"ni qo'lladi, bu esa bank tizimi oldiga yangi vazifalarini qo'ydi.

Bu mamlakat mexanizmi bir taraflama qurib bo'lmaydi, o'ylab topilgan ketma-ket islohotlarni amalga oshirishda oldin, eski tizim bilan bo'lgan muammolarni hal qilish kerak.

1.2 Xitoy bank tizimining shakllanishi

XX asrning 70-yillarning oxirida Xitoyda Bank sohasida keng miqiyosidagi islohotlar boshlandi, bu islohotlar kompleksli islohotlar tarkibiga kirar edi.

XXR bank tizimi islohotlar 3-bosqochda amalga oshirilgan:

1-bosqich 1977-1983 yillar

2-bosqich 1984-1993 yillar

3-bosqich 1994- hozirgi davrgacha³

³ Селищев А.С. Развитие банковской системы Китая // Деньги и кредит. - 2004. №11. - С.56.

Birinchi bosqich islohotlari markazlashgan daromadlar va harajatlar tavsiflaydigan eski tizim asosini burib yubordi. Bank tizimi yanada murakkabroq ko'rinish oldi. Asosiy e'tibor iqtisodiyoti rivojlanishining kredit-moliya dastaklariga qaratildi. 1-bosqichida bank islohotlari ko'proq komplekslashgan va mamlakat xalq xo'jaligi bilan bog'liq edi.

1980 yillardan boshlab, mamlakatda, moliya-kredit tizimi islohotlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayon bank tashkilotlari sonini, ularning yo'nalishlari va vazifalarini ko'payishi va ularning mustaqil tijorat tashkilotlariga aylanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Sotsiologik bozor iqtisodiyoti tizimini yaratish uchun samarali faoliyat ko'rsatadigan bank mexanizmi zarur edi. 90-yillarning o'rtalarida mamlakat hokimiyati makro darajada yangi bank mexanizmini yaratishga qaratilgan edi. 1994-yilda bank moliya sohasidagi islohotlar o'zining uchinchi bosqichiga o'tdi. Bu etapda quydagi vazifalar amalga oshirish ko'zda tutilgan edi: mavjud bank tizimini yangilash; markaziy hokimiyatdan qaramlikni kamaytirish; jahon standartlariga yaqinlashtirish. Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish normative huquqiy bazani tayyorlashga yordam berdi.

Zamonaviy ko'rinishdagi XXR bank tizimi 1994 yildan shakllangan, u to'rt guruhdan tashkil topgan: Xitoy Xalq banki; mahsus banklar, davlat kapitaliga asoslangan(siyosiy banklar deb ham ataladi); tijorat banklar; nobank moliyaviy muassasalar.

XXR da kundan-kunga, bank kreditlarini qo'llash ko'lami kengaymoqda. Qisqa muddatli (200 mlrd. yuan)⁴ kreditlarni berish bilan bir qatorda, mamlakatda, o'rta muddatli sanoat-savdo tashkilotlarini kreditlash keng tarqalmoqda. Mamlakatdagi kapital qurilishlari, davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirish bilan birga, bank orqali kreditlash yo'li bilan ham amalga oshirilmoqda. Undan tashqari, Xitoyda boshqa moliyaviy tashkilotlar ham ko'payib bormoqda. Masalan, sug'urtalash, investision-kreditlash, ijara kompaniyalari shular qatoriga kiradi.

⁴ Суворов А.В. Реформирование банковской системы Китая // Банковское дело. – 2005. - №10.

Mamlakatda sekin-asta fond bozori ham shakllanib bordi. (veksellarni hisobga olish, aksiyalarni sotish va boshqa qimmatbaho qog'ozlari). Bu yo'nalish bo'yicha, Xitoyning bir qator shaharlarida fond birjalari ochildi. Aksiya va obligatsiyalarni chiqarish xajmi 100 mlrd. yuandan ham oshib ketdi.⁵ Ular asosan, bo'sh mablag'larni yig'ish uchun foydalaniladi. Davlat mulki korxonalarida aksiyalar chiqarish hajmi chegaralangan bo'lib, ularning chiqargan aksiyalari yoki obligatsiyalari korxona mulki qiymatidan oshmasligi lozim bo'lib, obligatsiyalar bo'yicha fond foyizi, ular qo'yiladigan jamg'armasidan ham oshmasligi lozimdir. Aksiyalar va obligatsiyalarni chiqarish tartib-qoidasini Xitoy banki boshqaradi. Bank tizimiga doir qonunchilik bazasining yaratilishi va bu yo'nalishda bir qancha «Xitoy Xalq banki to'g'risida qonun» va «XXR tijorat banklari to'g'risida qonun»larni qabul qilinishi, ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlarning tabiiy davomi bo'ldi. Ishlab chiqilgan qonunlarning birinchisi, 1995 yil 18 martda qabul qilindi va shu kundan boshlab, kuchga kirdi.⁶ Ushbu qonunda 51 ta modda bo'lib, ular sakkiz bo'limga ajratilgandir. Bu xolat esa, XXRga asos solingan vaqtdan beri, Markaziy bank to'g'risida qabul qilingan birinchi qonun ekanligini bildiradi. Xitoy iqtisodiyotini qayta qurishda, Markaziy bank mavqeini kuchaytiradigan, ushbu qonun, rivojlangan mamlakatlar markaziy banklarining tajribasini hisobga olgan holda, XVF yordamida va shu bilan birga, ayni vaqtda, mamlakatdagi real voqelikni hisobga olgan holda, ishlab chiqilgandir.

Ko'p yillar mobaynida, turli idoralar va mahalliy hokimiyat organlari kreditlash siyosati masalalarida, XXBga taz'yiqlik o'tqazib keldilar. Chunki, ba'zan, ular mamlakat markaziy bankiga qaraganda, ko'proq ta'sirga ega edilar. 1998 yil oxiri, 1999 yil boshlarida, XXB mamlakatdagi tanglik ahvolini bartaraf etish choralaridan biri sifatida, Markaziy bankning viloyat filiallarini qayta tashkil etdi. Xitoy Xalq bankining mavjud 31 ta (XXR viloyatlari soniga qarab) mintaqaviy filiali o'rniga, 9 ta yangi filiali tuzildi. Bunday chora-tadbirlar, mamlakat Markaziy

⁵ Суворов А.В. Реформирование банковской системы Китая // Банковское дело. – 2005. - №10. С-66.

⁶ Авдеев А.С. О создании Новой системы управления валютными резервами КНР // Деньги и кредит. - 2007. №5. - С.69-72.

banki ishiga mahalliy hukumatlarning aralashuvini kamaytirishga olib kelishi kerak edi.

Xitoy bank tizimi uch bosqichga ega bo'lib, ular:

- 1) Markaziy bank - Xitoy Xalq banki (2008 yil dekabrda o'zining 60 yilligini nishonladi);
- 2) 29 ta milliy davlat banki, shuningdek, xorijiy banklarning 179 ta operatsiya olib boruvchi filiallari;
- 3) 88 ta shahar tijorat banki, 3200 ta shahar va 44 mingta qishloq kredit kooperativlaridan iboratdir.⁷

1980 yil o'rtalariga qadar, XXRda bank muassasalarida davlat monopoliyasi saqlanib keldi. Butun kredit faoliyatini (qishloqdagi kredit kooperatsiyasini hisoblamaganda) bir qancha ixtisoslashtirilgan banklar (Sanoat-qurilish banki, qishloq xo'jalik banki, Xitoy Banki, Temir yo'llar banki va boshqalar) va ularning joylardagi filiallari hamda bo'limlari amalga oshirib keldi. Aslini olganda, tijorat banklari tizimi mavjud emas edi. Xorijiy banklar esa, Xitoy bozorini endigina o'zlashtira boshlagan edilar.

Xitoyda ko'p bosqichli kredit tizimi 1983 yil sentyabrda qurila boshlagan, deb hisoblanadi. O'sha davrda, XXR Davlat Kengashi moliya tizimini isloh qilish maqsadida, Xitoy Xalq banki maqomini o'zgartirish xaqida qaror qabul qildi. Mana shu qarorga muvofiq, Xitoy Xalq Banki (XXB) Markaziy bank vazifalarini bajara boshladi va u, savdo hamda sanoat korxonalarini kreditlash faoliyatini to'xtatdi. Shu o'rinda, 1970 yilda, XXB, aslida mustaqil muassasa sifatida tugatilganligini hamda u, XXR Moliya vazirligi tizimiga kiritilganligini aytib o'tish lozimdir. XXB tiklanganidan keyin, u xuddi avvalgidek, bevosita XXR Davlat Kengashiga bo'ysundirildi.

Hozirgi vaqtda, XXB ga mamlakatdagi banklar faoliyatini, pul-kredit siyosatini shakllantirish, ixtisoslashtirilgan banklar va boshqa moliya muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda taftish qilish vakolati berilgandir. XXR Davlat

⁷ Гельбрас В.Г. Финансовая система КНР / Экономика Китайской Народной Республики. - М.: Квадрига, 2010. - с. 589-620.

Kengashi yana unga, qonun asoslarida xujjatlar chiqarish, milliy oltin-valyuta zahiralarining holatini kuzatib turish, qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish xuquqini ham bergan. Endilikda, pul emissiyasining yillik hajmi rejasi, banklarning bazaviy foiz stavkalari va yuanning almashuv kursi o'zgartirilgan taqdirdagina Davlat Kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'ladi. Kreditlash siyosatining turli vositalari esa, bankning o'ziga bo'ysunadi.

Xitoy va boshqa mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, davlat tomonidan iqtisodiyotning o'zi zarar ko'rib, davlat sektorini kreditlash uchun qarz berishi va bu qarzning muddatida qaytarib berilmasligi, mamlakatda yangi tashkil etilgan tijorat banklarining asosiy muammolaridan biriga aylandi. Aynan, mana shu muammoni hal etish uchun, 1994 yilda XXRda, uchta «siyosiy» banklar tashkil etildi.⁸

XXRda «siyosiy» banklar, davlatning siyosiy yo'nalishini amalga oshirish va uni mustahkamlash vazifasini, tijorat maqsadlariga kreditlarni ajratish uchun, ta'sis etilgan edi. Ana shu maqsadda, 1994 yilda Xitoyda deyarli bir vaqtda uchta bank ochilib, ular quyidagilardir:

- Davlat rivojlanish banki:
- Xitoy Eksport-import banki:
- Xitoy qishloq xo'jaligini rivojlantirish banki (Bu bank Xitoy qishloq xo'jalik bankidan ajralib chiqqan bankdir).

Ushbu «siyosiy» banklarning ustavda belgilangan hamma mablag'i, hukumat tomonidan ta'minlanadi. Ulardan tashqari, Xitoyda, davlat sarmoyasi qismangina ishtirok etadigan banklar ham mavjuddir. O'z navbatida, Xitoydagi «Siyosiy» banklarga odatda, aholi mablag'lari jalb etilmaydi.

⁸ Гельбрас В.Г. Финансовая система КНР / Экономика Китайской Народной Республики. - М.: Квадрига, 2010. - с. 589-620.

Xitoyning «siyosiy» banklaridan biri – uning Davlat rivojlanish bankidir (DRB). Ushbu bank tomonidan kreditlanadigan ob'ektlarni tanlashda u, XXR Davlat reja qo'mitasi bilan baravar, hal qiluvchi xuquqqa egadir. Bankning har bir masala bo'yicha bildirilgan fikri esa, kreditlash shartlari masalasini belgilash chog'ida hisobga olinadi. 1997 yilning oxirida, Davlat rivojlanish banki mablag'larining umumiy hajmi 381,148 mlrd yuan deb baholangan edi. Garchi, bank uchun foyda olish asosiy maqsad bo'lmasada, shunga qaramay, 1997 yilning o'zidagina, bankning sof foydasi 816 mln. yuanni tashkil qildi.

Xitoy Eksport-Import banki⁹ (XEIB) bevosita XXR Davlat Kengashiga bo'ysunadi. U davlat tashqi iqtisodiy faoliyat banki hisoblanadi. Bankning asosiy vazifasi - XXR eksportini, ayniqsa, mashina va elektrotexnika uskunalarini eksport qilishni kengaytirishdan iboratdir. XEIB mablag'larining asosiy manbai aksiya va obligatsiyalarni emissiya qilish orqali hamda ularni Xitoyda ham, chet elda ham, joylashtirishdan iboratdir. XEIBanki yana, aralash kreditlashni ham amalga oshiradi. Shuningdek, u eksport kreditlarini sug'urtalaydi va ularga kafolatlar beradi.

Xitoy qishloq xo'jaligini rivojlantirish banki. Xitoy qishloq xo'jalik bankidan, mustaqil bank sifatida, ajralib chiqarildi. Bu holat esa, o'z navbatida, qishloq xo'jalik bankini, davlat tijorat bankiga aylantirish uchun sharoit yaratib berdi. 1997 yil oxirida, bankning umumiy sarmoyasi 923,3 mlrd. yuanni tashkil qildi (taqqoslash uchun: o'sha davrda, XXR davlat byudjeti 900 mlrd. yuanga yaqin edi).¹⁰

Ushbu bank mablag'larining asosiy manbai, Xitoy Xalq banki kreditlaridan, shuningdek, aksiyalar va obligatsiyalar chiqarishdan (uncha katta bulmagan xajmda) kelib chiqadi. Mazkur bankning asosiy operatsiyalari qishloq xo'jaligini kreditlashdan, qishloq xo'jalik

⁹ Селищев А.С., Развитие банковской системы Китая, Деньги и Кредит №11, 2004 С.70.

¹⁰ http://www.spekulant.ru/archive/2004_05_st19.html

mahsulotini davlat tomonidan xarid qilish uchun kreditlar berish va maxsus davlat fondlarini tashkil etishdan iboratdir. Bankning, har bir viloyatda, o'zining bo'limlari mavjud bo'lib, shuningdek, ular shaharlarda 294 ta bo'limga va uezdlarda 1617 bo'limga egadirlar. Ularda ishlovchi xodimlarning umumiy soni -50 ming kishidan ortadi.

XXR bank tizimini isloh qilishda, qayta tiklangan mavjud to'rtta ixtisoslashtirilgan davlat banklarini (Xitoy Sanoat-savdo banki, Xitoy qurilish banki, Xitoy qishloq xo'jalik banki va Xitoy banki) tijorat banklariga aylantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur banklarning tashkiliy va boshqa bajaradigan ishlari jihatidan, jahon amaliyotiga yaqinlashtirishni nazarda tutilgan edi, lekin, amalda mazkur banklar davlat banklari bo'lib qolaverdi. Ular faoliyati ustidan hukumat nazorati bevosita emas, balki bilvosita (masalan, kuzatuvchilar kengashi orqali) amalga oshiriladi.

Xitoy Sanoat-savdo bankiga kelsak, bu bank bir muncha o'ziga xos tarzda tuzilgandir. XXR Davlat Kengashi 1983 yilning sentyabr oyida qabul qilgan qarori bilan, Xitoy Markaziy banki - Xitoy Xalq banki bo'limlarining umumdavlat tarmog'i, yangi Xitoy Sanoat-savdo bankiga aylantirildi. Bankning Pekindagi asosiy idorasi xuquqlari ham ancha kengaytirildi. Yangi tashkil etilgan Xitoy sanoat-savdo banki, davlat sanoati, kooperativ sanoati hamda savdo bilan operatsiyalar o'tqazish bo'yicha, ixtisoslashtirilgan bankga aylandi. Ilgari, Xitoy Xalq banki tomonidan bajarib kelingan kreditlash, hisob-kitob va nazorat vazifalarini, Markaziy bank o'z zimmasiga oldi. 1997 yilning oxirida, bankning depozit hisob varaqlaridagi mablag'lari qoldig'i - 2251,1 mlrd. yuanni tashkil qildi. Bank chet elda 5 ta bo'limga va 3 ta vakolatxonalariga egadir.

Xitoyning ikkinchi davlat banki, bu- Xitoy Xalq qurilish bankidir¹¹. U davlatning asosiy fondlarini moliyaviy - investision tomondan ta'minlaydi. Shu bilan birga, u yana davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilishni moliyalashga, kapital qurilish ob'ektlarini kreditlashga ixtisoslashgan hamdir. U bevosita XXR Moliya Vazirligiga va Xitoy Xalq bankiga bo'ysunadi. Shu sababli, moliyalash va kreditlar berish sohasida, ikki tomonlama vazifalarni bajaradi. Uning operatsiyalari, asosan, pul bilan ta'minlashdan va kapital qurilish uchun qarzlarini to'lab borishdan iboratdir. 1997 yil oxirida, bankning mol-mulki 2343,5 mlrd. yuan deb baholangan.

Mamlakat bank tizimida, Xitoy qishloq xo'jalik banki (XQXB) muhim o'rin tutadi. Bu bank 1951 yilda tashkil etilgan bo'lib, u qishloq xo'jalik kooperativ banki o'rnida paydo bo'lgan. Kooperativ bank zimmasiga qishloq xo'jaligini kreditlar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan edi. Ushbu bank tashkil etilgan vaqtdan beri, 4 marta yopilib, har gal yana qayta tuzilganligi diqqatga sazovordir.

1979 yilning fevral oyida, Xitoy qishloq xo'jalik banki navbatdagi tiklanishdan keyin, qishloq xo'jaligi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni tasarruf eta boshladi. U mamlakat qishloq joylaridagi hamma omonatlar, qarzlar va hisob-kitoblarni yuritib, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatishga mo'ljallangan, davlat fondlarini boshqaradigan bo'ldi.

XXR qishloq xo'jalik bankidan, XXR qishloq xo'jaligini rivojlantirish banki ajratib chiqarilganidan keyin, XXR qishloq xo'jalik banki davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalardan ozod qilindi va tijorat bankiga aylantirildi (qishloq joylardagi mijozlarga tijorat asosida kredit beradi). 1997 yilning

¹¹ Селищев А.С., Развитие банковской системы Китая, Деньги и Кредит №11, 2004 С.58

oxirida, Xitoy qishloq xo'jalik bankining depozit mablag'lari 1109,6 mlrd. yuanni tashkil etdi.

Xitoy banki 1908 yilda ta'sis etilgan bo'lib, u 1921 yilga qadar, chet elda 21 ta bo'limga ega bo'lgan. U doimo xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirishda monopol mavqega ega bo'lib kelgan. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati kuchayishi munosabati bilan, Xitoy bankining ahvoli ancha o'zgardi. 1980 yilda, uning ustavi qayta ko'rib chiqildi va bank davlat korxonasi deb e'lon qilindi. Xitoy Bankining ustav fondi 400 mln. yuandan, 1987 yilga kelib, 500 mlrd. yuangacha oshirilib, uning vazifalari ancha kengaytirildi. Hozirgi kunda, u mamlakat ichida 50 taga yaqin bo'limga, shuningdek, Gonkong, London, Lyuksemburg, NyuYork va Singapurda ham o'z bo'limlarga egadir. Uning, Tokio va Parij shaharlarida vakolatxonalari bor. 1998 yil oxirigacha, ushbu bankning 554 ta yangi bo'limlari ochildi. Xitoy banki mamlakatning barcha yirik shaharlari va savdo portlaridagi filiallardan tashqari hozirgi vaqtda Gonkong va Makaoda ham 261 ta bo'limga egadir.

Matbuot xabarlariga qaraganda, Xitoy banki 1997 yilda ikkinchi marta dunyoning 500 ta eng yirik korxonalari jumlasiga kirib, u 173-o'rinni egallagan. 1997 yil oxirida, ushbu bank aktivlari 2 trln. 231 mlrd. 700 mln. yuanni (268 mlrd. 879,5 mln. AQSh dollarini) tashkil etdi.

Kredit tashkilotlarini qayta tiklash, ayni vaqtda, Xitoy bank tizimining yanada rivojlanishini ham anglatar edi. XXRda eski aksiyadorlik tijorat banklari tiklana boshladi va yangilari ham sekin-asta tuzila boshladi. 1999 yilni boshida, XXRda jami 20 ga yaqin, a'lo darajali aksiyadorlik tijorat banki mavjud edi. Mana shu guruh banklarning vakillaridan biri, 1986 yilda qayta tiklangan, Xitoy Kommunikatsiya banki bo'lib, u mamlakatning eng keksa banklaridan

biri hisoblanadi. Unga ham, 1908 yilda asos solingan. Ushbu bank operatsiyalari 1958 yilda to'xtatilib, birozdan so'ng yana qayta tiklandi. Bank o'z maqomiga ko'ra, ko'p funksiyalarni bajaruvchi Umumxitoy aksiyadorlik banki hisoblanadi.

Bu bank mamlakatdagi aksiyadorlik tizimiga asoslangan, birinchi moliyaviy muassasa bo'ldi. Xitoy Kommunikatsiya bankining ustaviga muvofiq, bank XXR Davlat Kengashi boshqaruvi doirasida ish olib boradi. Hozirgi vaqtda, bank Xalqaro moliya bozorlarini faol o'zlashtirib, Xitoyning beshta eng yirik banki safidan o'rin oldi. U Xitoy iqtisodiyoti uchun xorijiy mablag'larni yetqazib beruvchi asosiy banklardan biridir. 1999 yil boshlarida, bank aktivlari 483,9 mlrd. yuan da baholangan edi. 1998 yil yakunlariga ko'ra, bank foydasi 2,55 mlrd. yuanni tashkil qildi. Bankning markaziy boshqaruv xizmati, Xitoyning moliya markazi bo'lgan, Shanxayda joylashgandir.

Xitoy aksiyadorlik tijorat banklarining mana shu guruhga kiruvchi va kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi yana bir vakili, Xitoy Xalqaro korporatsiyasining sanoat bankidir. Rasman, bank 1987 yil 20 aprelda 800 mln. yuan ustav sarmoyasi bilan ta'sis etilgan edi.

II BOB. XITOIY SPETSIFIKALI BOZOR IQTISODIYOTIDA BANK TIZIMI

2.1 Xitoy Xalq Respublikasining ko'p pog'onali bank tizimi

XX asrning 90 yillaridan XXRning bank sektori davlat tashkilotlariga mo'ljallangan bo'lib, davlat moliya-kredit institutlari birlashmasidan iborat edi. Bozor mexanizmi effektiv emas edi, bank funksiyalari ham chegaralangandi. Bank kreditlarini qoplashda, hattoki davlat muassasalari ham to'lamagan, ularning qarzlari 40% yetgan edi.

2001 yilda Xitoy tashqi savdo a'loqlariga qo'shilganidan keyin yetarli darajada yaxshilandi.¹² Asosiy sabablaridan biri bank sektori tashqi moliya institutlarga butunlay ochib berildi. Milliy banklarning raqobatga bardosh beromaskligida qo'rqanidan, "Katta to'rtlik" reformasini o'tkazildi. Bunda davlatdagi kreditlarning 70% to'g'ri keladi.¹³ Bu reformalarni o'tkazish bir necha etaplarda bo'ldi:

- Davlat tijorat banklarini aksionerlashtirish;
- Strategik chet el investitsiya aksioner kapitallarini jalb etish;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida o'z aksiyalarini joylastirgan holda chiqishdan iborat.

Shu bilan birgalikda, uchta siyosiy (Xitoy Rivojlanish banki, Xitoy Eksport-import banki, qishloq xo'jalik rivojlanish banki) banklarga davlatning uzoq muddatli rejalari topshirildi. Shuni takidlash kerakki, hanuzgacha "Katta to'rtlik" banklari XXRning iqtisodiy havfsizligini nazorat qilib turadi.

¹² Новоселова Л.В. Банковский сектор после присоединения Китая к ВТО // Экономика КНР: 10 лет после вступления в ВТО. Часть 2. - М.: ИДВ РАН, 2013. - с. 5-22.

¹³ Statistical Yearbook of The Republic of China / Directorate-General of Budget, Accounting and Statistics. - Taipei: The Chinese Statistical Association, 2013.

Shu yangiliklar natijasida, 2005-2006 yillarda “Katta to’rtlik” banklari gonkong fond birjasida listingni o’tishdi. Eng yirik Xitoy Ishlab chiqarish va tijorat banki Shanhay hamda Gonkong birjalarida bir vaqtning o’zida umumiy qiymati 21 mlrd doll. IPOni amalga oshirishadi. Bu esa Amerika Citygroup bankidan keyin dunyodagi ikkinchi yirik bank hisoblanadi.

Xitoyning yirik davlat banklarini qayta taqsimlash va reformalar o’tkazish natijasida, ularning moliyaviy ahvolini hamda ish faoliyatiga ijobiy ta’sir o’tkazdi. 2010 yil China Financial Sector Assessmentning statistik ma’lumotiga asosan umumiy aktivlar hajmi 46,9 trln yuanga yetib bu ko’rsatkich 2004 yilda 17,3 trln yuani tashkil etgan. Bundan ko’rinib turibdiki 2,7 martaga o’sganligini.

Chet el kapitallarining kirib kelishi XXRning bank sektorini turli xil milliy moliya-kredit institutlari uchun ham, ularning moslashishiga yordam berdi. Shu bilan bir qatorda davlat siyosiy banklarining tijoratlashuvi amalga oshirilib, yirik tashkilotlarga mahsus sohalari bo’yicha kreditlar berildi. Asosiy etibor tijorat aksioner banklari bozoridagi mablag’I yetarlicha emaslariga e’tibor berilidi.shunga paralle ravishda qishloq kreditlarini ham kengaytirish olib borilib, bu bilan agrar sektorni hamda kichik va o’rta tashkilotlarni ushlab turish ko’zda tutilgandi.

2006-2010 yillarda XXRda bank institutlari 5,5 martaga qisqartirildi- 19,7 mingdan 3,6 mingga. Shunga qaramay aholining bank xizmati bilan ta’minlanganligi bir necha martaga oshdi. Agar 2005 yilda Xitoyning YaIMsi bank aktivlariga 147,2%ni tashkil qilsa, 2010 yilga kelib bu ko’rsatkich 171,3% to’g’ri keldi.

2.1.1-jadval.

	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Bank institutlarining umumiy soni	-	19667	8721	5578	3767	3639
1 mln aholiga bank otdellarning to'g'ri kelishi	-	140	144	146	145	146
Bank depozitlarini YaIMga qarab(%)	147,2	153,3	143,5	147,5	169,6	171,3
Bank kreditlarini YaIMga qarab (%)	114,3	113	111	108,3	129,3	131,1
Bank aktivlarini YaImga qarab (%)	197,1	198,3	194,2	197,4	229	234,2

Xitoy bank sektorining ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha ahvoli.¹⁴

XXR hukumatining barcha e'tibori bilan bank tizimida o'tkazgan reformalari o'z natijalariga olib keldi. Milliy bank sektorining hajmi YaIMning ko'rsatkichlarini (o'rtacha 10-11%) ushlab turish natijasida o'sdi. "Bloomberg" agentstvasining habarlari bo'yicha 2010 yilda bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha o'nta yirik banklar qatoriga 4 ta xitoy banki o'rin egallagan. 2010 yilda rentabilniy aktivlar koefitsenti 1,5%ga to'g'ri keldi. Bank sohasidagi 2005-2010 yillardagi boshqa nominal ko'rsatkichlarni quyidagi jadval asosida ko'rib chiqish mumkin.

¹⁴ Савинский С.П. О банковском секторе КНР и реформе Народного банка Китая // Деньги и кредит. - 2005. № 10. - с.62-68.

2.1.2-jadval.

	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Yetarlicha capital koeffitsenti	2,5	4,9	8,1	12	11	12
“yomon qarzlar” umumiy kredit hajmi bo’yicha	8,9	7,5	6,4	2,4	1,6	1,1
Rentabil aktivlarning koeffitsenti	0,6	0,9	1,4	1,4	1,4	1,5
Rentabil kapitallarning koeffitsenti	15,1	14,9	25,6	24,8	24,7	26,3

XXR banklarining moliyaviy ko’rsatkichlar bo’yicha mustahkamligi.¹⁵

XXRning bank faoliyati bo’yicha nazorat qilish va boshqarish komiteti (China Banking Regularity Commission) turli xil majburiyatlar, normalar, standartlarning amalga oshirishni kuzatib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- + Bank institutlarini kuzatish va bank sohasidagi shartnomalarni tartibga solish;
- + Bank sektorining haqoniy raqobatini himoya qilish;
- + Milliy banklarning raqobatbardoshligini oshirish;
- + Jamoaning milliy banklarga bo’lgan ishonchini ta’minlash;
- + Mijozlar va hissadorlarning qiziqishlarini himoyalash;
- + Xitoyda chet el banklarini ochilishiga ruhsat berish va boshqalar.

2012 yilda Xitoy iqtisodiyoti bir maromdagi o’sishni ushlab turib, talablarning yetarli darajada qondirilishi, inflyatsiya tushishi, bandlik bir tekisligi hamda turmush sharoitning yaxshilanganligini ko’rishimiz mumkin. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyotning asosi bo’lgan holda mustahkamlandi, bundan tashqari ishlab chiqarish sohasi pasayishiga qaramay bir maromda o’sishiga zamin

¹⁵ Савинский С.П. О банковском секторе КНР и реформе Народного банка Китая // Деньги и кредит. - 2005. № 10. - с.62-68.


yaratilmoqda. 2012 yilning oxirlarida Xitoy YaIMsi 51,93 trln yuan(8,44 trln doll.) ko'rsatkichiga chiqdi, bu esa oldingi yilga nisbatan 7,8% o'sdi.

2012 yilga kelib Xitoy komiteti bank sektorini nazorat qilish bo'yicha ("CBRC") quyidagi bank sektorining strukturasini ishlab chiqdi¹⁶:

- Ikkita siyosiy bank va "Xitoy Rivojlanish Bank" ("China Development Bank")
- 5 ta davlat tijorat banklari (shu bilan birga Xitoy markaziy banki- "People's Bank of China")
- 12 ta tijorat aksioner banklari
- 144 ta shahar banklari
- 337 ta qishloq tijorat banklari
- 147ta qishloq tijorat yig'imlar
- 1927 ta qishloq kredit yigimlari
- 1 ta pochta-jamg'arma banki
- 4 ta aktivlarni boshqarish boyicha firmalar
- 42 ta chet el banklar va boshqa moliyaviy institutlar ochildi.

Xitoyda umumiy bank institutlar soni 3747 va umumiy bandlik bo'yicha 3,362 mln tashkil etadi. 2012 yil bo'yicha iqtisodiyotdagi bank sektoridagi aktivlar 20,3 trln yuan(17,9%) va umumiy schyotda 133,6 trln yuani tashkil etdi. Shu tomondan 5 ta davlat tijorat banklari hisobiga 45% aktivlar, 12 ta aksioner tijorat banklariga – 17,6% to'g'ri keladi. Bank qarzlar 125 trln yuani tashkil etib, bu 2012 yil bo'yicha 17,8% (18,9 trln) oshdi.

¹⁶ China Banking Regulatory Commission: Annual Report. - Beijing: CITIC Press, 2012. 15-20 betlar.



2.1.1-rasm Xitoy bank sohasining moliyaviy institutlar tuzulishi¹⁷

Moliya institutlari tuzilishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, banklarning boshqa moliyaviy institutlarga nisbatan haddan tashqari ko'pligi ko'rinadi(77%). Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda- fyucher hamda moliya kompaniyalari, barcha Xitoydagi moliya institutlarining 4% va 5%ni tashkil etadi.

2.2 Zamonaviy bank tizimining yutuqlari va kamchiliklari

Zamonaviy XXR bank tizimining holatiga reformalar natijasida erishilganligi, global iqtisodiy bozor sharoitida Xitoyning tez moslashuviga, jahon moliya krizisini minimallashtirishga olib keldi. Bundan tashqari, hozirgi kunda risk va muammolar mavjud bo'lib, hali reformalarni davom ettirish kerakligini ko'rsatib beryapti.

Hozirgi kunda Xitoy bank tizimi yangi reformalar bosag'asida turibdi va yonalishi aniq bo'lishiga qaramay qanday oqibatlariga keltirishi noaniqdir.¹⁸

¹⁷ China Banking Regulatory Commission: Annual Report. - Beijing: CITIC Press, 2012. 15-20 betlar.

¹⁸ <http://uglc.ru/china-yuan/banking2.htm>

Yuqorida ta’kidlab o’tilganide bank tizimi iqtisodiyotning ahvolini namoyon etib turadi hamda u orqali iqtisodiyotni bir maromda va mustahkam ushlab turishga yordam beradi. Shuning uchun Xitoy Xalq Banki XXRning iqtisodiy ko’rsatkichlarining muvozanatda bo’lishiga katta e’tibor ajratmoqda.

Buning uchun XXB bir nechta kuchli moliyaviy bo’ginlaridan foydalanadi. Bular pul massasining oqimi pasayganda kursni ta’minlab turish, defelyatsiyani oldini olish va ichki talabni qondirish; davlat emissiya qarzlarini asosida yirik infrastruktura loyihalarida texnik yangilanishlar olib borish, xalq xo’jaligidagi tabiiy sohalardagi texnikaning yangilanish; foiz stavkalarini kamaytirish(deposit bo’yicha ham, kredit bo’yicha ham); iste’mol kreditining rivojlanishi hamda mikro kreditlarning shaharlarda va qishloqlarda yoyilishi; valyutada qattiq siyosatni qo’llash.

Ammo ko’pgina analitiklarning fikricha XXRda monetary hamda fiscal siyosatlarning olib borilishi tizimli havf larning kelib chiqishi mumkin. Chunki Xitoyda iqtisodiyot va siyosat jada uzviy bog’langandir. Ammo siyosiy qarorlar iqtisodiy muammolarga beqiyosdir.

Shunga qaramay Xitoy “o’zning” va “boshqa” banklarga bir xil sharoit beradi. Bundan chet el banklarini o’zining qoidalari asosida ish yuritishi kerakligi, bu esa Xitoy hududida ortiqcha banklarda raqobatning yoqalishiga olib keladi. Chet el banklari esa bunday qoidalaridan rag’batlanmaganligi uchun, admenestrativ qoidalarni cheklab o’tishga urinishadi, ammo bu hech qanday natija bermaydi.

Endi Xitoyga kirib kelayotgan investitsiyalarga keladigan bo’lsak, 90% kirib kelayotgan investitsiya davlat hukumronligi ostida qolmoqda.¹⁹ Aksioner hamkorlar ham mansabdor shaxslar va partiya vakillariga tegishlidir. Shundan kelib chiqqan holda, chet el mutahassislarning fikricha, Xitoy kompaniyalari “juda shubhali” ko’rinadi. Bunga qaramasdan dunyoda XXRga bo’lgan qiziqish kattadir.

¹⁹ <http://uglc.ru/china-yuan/banking2.htm>

Xitoyning oldingi qarashi biri bo'lmish “daryodan o'tar ekansan, toshlani ushab o't” degani, hozirgi paytga kelib bu o'z dolzarbligini yoqotdi. Shuning uchun ham bank tizimidagi funksiyalarini qaytadan ko'rib chiqishi lozimdir.

Birinchi qadamlar albatta qilingan bo'lib, bu Xitoyning tashqi savdo a'loqalariga kirishishi hamda xalqaro raqobatga bardosh beradigan tizimni tayyorlashi karekligidir.

Bank sektorining ochiqligi juda sekinlik bilan amalga qo'llanilmoqda, bu paytda Xitoy butunlay bank tizimini qaytadan ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Eng asosiysi har yili o'sib borayotgan qishloq xo'jalik iqtisodiyotini moliyalashtirish hajmini va yo'llarini ko'paytirish. Kichik va o'rta tadirkorlik uchun kredit resurslarining foydalanishini qulay qilish. Buning uchun kichik va o'rta volost hamda qishloqlardagi banklar rivojlanishiga turtki bo'ladi. Muhimi bank foiz stavkalrini reformalashtirish, tijorat banklari o'zlari dinamika va darajaga ta'sirlarini kuchaytirishdan iborat. Jamoaviy boshqaruv sistemasi hali butunligicha yetuk darajaga ko'tarilmagan.

Ammo shuni takidlab o'tish kerakki, onlain-bank xizmti hamda mobil moliya servisini boshqarish tez sur'atlarda bo'ayotgani, “kartalarsiz hayot” ("Cardless life") degan yangi davrni yaratmopqda.²⁰

Mutahassislarning fikricha, Xitoy bank tizimining orqasida Xitoy hokimiyati hamda partiya mustahkam devor bo'lib turganidir. Shuning uchun Xitoy hozirda juda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirishiga qaramay yetarlicha zapasga va mustahkamlikka egadir.

²⁰ Statistical Yearbook of The Repuplic of China / Directorate-General of Budget, Accounting and Statistics. - Taipei: The Chinese Statistical Association, 2013.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XXRning bank tizimining evoyutsiyasi Xitoy rivojlanish variantining tipik xususiyatini ko'rsatib turadi. Tashqi dunyoga shiddat bilan ochilishi, boshqa mamlakatlar tajribasini aktiv qabul qilish, shu bilan bir qatorda Xitoy o'zining mingyillik an'analari va milliy mentalitetiga asoslangan holda o'z yo'lini bosmoqda.

Xitoy kelajakdagi umumiy iqtisodiy turg'unlikka erishish uchun-mamlakat miqyosidagi yirik hajmdagi moliya intizomlarini mustahkamlash hamda davlat banklarini sanksiya va rekapitalizatsiya qilish reformalar kaliti hisoblanadi.

Eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib davlat banklarining tijoratlashuvi, buning oqibatida bu banklar siyosiy reformalarning sotsial buffer vazifasini emas, balki daromadning o'shishi uchun xizmat qilishi kerak.

25 yil davomida XXR iqtisodiyotida o'tkazilgan reformalar natijasida, davlat ikki tomonlama bosim ostida qoldi: birinchida – zaradagi korxonalarni kamaytirish, ikkinchidan - banni shunchali darajada mustahkamlash kerakki, keyinchalik nafaqat milliy bank bozorida balki chet el kredit organizatsiyalari bilan aktivlarni yoqotmagan holda raqobatlashish.

Hozirgi kunda bank sektori ikki xususiyat bilan harakterlanadi:

Birinchidan, kredit banklar milliy iqtisodiyotni moliyalashda asosini tashkil etadi.

Ikkinchidan, bank tizimida davlat tijorat hamda aksioner tijorat banklar dominant hisoblanadi.

Uzoq muddatli ssuda kapitallari bozor rivojlanishida Xitoyda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda qaraganda kamroqligi davlatning hali ko'p kuchaytirishiga e'tibor berishi shart. Shuning uchun uzoq muddatli rejalarga qarab davlat tijorat va aksioner banklarning Xitoy iqtisodiyotinig rivojlantiradigan muhim faktorlarida biri bo'ladi.

Oxirgi yillarda mamlakatda milliy bank tizimida muhim o'zgarishlar o'tkazilmoqda. Ular o'z ichiga davlat hamda aksioner tijorat banklarning qayta

taqsimlash hamda rekapitalizatsiyani o'tkazish, shuningdek moliya liberallashtirishini va bank sohasini tartibga solish va boshqaruvni amalga oshirishdan iborat.

Aynan oxirgi yillarda o'tkazilgan reformalar bank sektorining faoliyati yaxshilanishi ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, ammo Xitoy banklarining mustahkamligi hali yuqori darajaga yetmadi. Bankdagi tan ahvol, hali hukumatning qarshiliklar olib borayotganligi saqlangunicha o'zgarmay turadi, ya'ni bu banklarning yangi bozor metodlaridan qo'llashi kerakligi, boshqa tomondan davlat o'z boshqaruvini saqlab qolgan holda faoliyat yuritishi lozim.

FOYDALANGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Гельбрас В.Г. Финансовая система КНР / Экономика Китайской Народной Республики. - М.: Квадрига, 2010. - с. 589-620.
2. Кузнецов С.Г. Реформа и развитие банковской системы Китая // Деньги и кредит. – 2002. № 5. – С. 70 – 74.
3. Нестерова Т.С. Банковская система Китая. - Новосибирск, 2008. - с. 33-34
4. Новоселова Л.В. Банковский сектор после присоединения Китая к ВТО // Экономика КНР: 10 лет после вступления в ВТО. Часть 2. - М.: ИДВ РАН, 2013. - с. 5-22.
5. Портяков В.Я. О банковской сфере Китая // Деньги и кредит. - 2006. - с. 61-62.
6. Савинский С.П. О банковском секторе КНР и реформе Народного банка Китая // Деньги и кредит. – 2005. №10. – С. 62 – 68.
7. Селищев А.С. Развитие банковской системы Китая // Деньги и кредит. - 2004. - с. 63-70.
8. Суворов А.В. Реформирование банковской системы Китая // 2009. № 1. С. 22-29.
9. Суворов А.В. Финансовые институты с иностранным участием в Китайской Народной Республике // Финансовая аналитика: Проблемы и решения. 2009. № 3. С. 27-35.
10. Тверская Д.В. Влияние мирового экономического кризиса на работу иностранных банковских институтов в Китае // РИСК: Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. 2009. № 3. С. 142-143.
11. Тверская Д.В. Риски банковской системы Китая, связанные с ускоренным кредитованием в 2009 г. // РИСК: Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. 2010. № 2. С. 191-192.

12. Тверская Д.В. Перспективы развития банковской системы Китая // РИСК: Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. 2009. № 1. С. 64-66
13. Шрёдер К. Реформирование банковской системы Китая // Деньги и кредит. – 2006. №5. – С. 53 – 60.
14. <http://easttime.ru/news/kitai/kitai-gotovit-reformu-bankovskoi-sistemy/5688>
15. China Banking Regulatory Commission: Annual Report. - Beijing: CITIC Press, 2012. 15-20
16. <https://sinologue.wordpress.com/2008/07/02/> банковская-система-китая-историческ/
17. Statistical Yearbook of The Republic of China / Directorate-General of Budget, Accounting and Statistics. - Taipei: The Chinese Statistical Association, 2013.
18. http://www.spekulant.ru/archive/2004_05_st19.html
19. <http://uglc.ru/china-yuan/banking2.htm>